



In Spain, tigernut-based beverages are widely known as “horchata de chufa,” which holds significant economic importance. Annually, approximately 50 million liters are produced, generating around 60 million euros in revenue. About 1,200 hectares are dedicated to tigernut cultivation, with an average yield of 10 tons per hectare. Product diversification includes chocolate, jelly, beer, liqueurs, fermented products, and yogurt, providing additional income opportunities.[5]



Cyperus esculentus utilizes the C₄ photosynthetic mechanism and grows efficiently under high temperatures, water scarcity, or intense sunlight, making it suitable for cultivation in diverse agricultural conditions. It thrives in a wide range of soils, tolerates drought, waterlogging, and temperatures as low as –5°C. Propagation through tubers further expands its potential for agricultural production across various soil and climatic zones.

The development and cultivation of *Cyperus esculentus* Lativum can serve as an additional crop in household plots, providing employment for women and contributing to family income. This approach supports poverty alleviation and promotes economic independence for rural women through productive use of fallow land.

Cultivation of tigernuts also allows investment in processing industries, the expansion of new markets and the support and skill development of women working with tigernut-based products.

References

1. AbdelKader H, Ibrahim F, Ahmed M, El-Ghadban E. 2017. Effect of Some Soil Additives and Mineral Nitrogen Fertilizer at Different Rates on Vegetative Growth, Tuber Yield and Fixed Oil of Tiger Nut (*Cyperus esculentus* L.) Plants. J Plant Prod, 8(1):39–48.
2. Achoribo ES, Ong MT. 2017. Tiger Nut (*Cyperus esculentus*): Source of natural anticancer drug? Brief review of existing literature. Euro Medit Biomed J, 12: 91–94.
3. Maduka N, Ire SF. 2018. Tigernut Plant and Useful Application of Tigernut Tubers (*Cyperus esculentus*) - A Review. Current J App Sci and Tech, 29(3): 1–23.
4. David AB. 2005. Tiger nut. A Dictionary of Food and Nutrition. URL: <https://www.encyclopedia.com/education/dictionaries-thesauruses-pictures-and-press-releases/tiger-nut> (access date: 21.02.2020).
5. Dyer AR. 2009. The Ecology of Chufa (*Cyperus esculentus sativus*). Report from University of South Carolina Aiken, Columbia.

MAKTABGACHA TA’LIM YOSHDAGI BOLALARDA MADANIY QADRIYATLARGA HURMAT HISSINI SHAKLLANTIRISH

University of Business and Science oliy ta’lim muassasasi Maktabgacha/boshlang‘ich ta’lim va sport
faoliyati kafedrasi o‘qituvchisi **A.Xolmatova**

University of Business and Science oliy ta’lim muassasasi Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi **Iroda
Nabiyeva**

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda yangi jamiyatni barpo etish eng avvalo insonlarimizda bugungi murakkab zamonda turli yo‘llar bilan kirib kelayotgan yod g‘oyalarga qarshi sog‘lom kurashish, milliy qadriyatlarimizga suyanishni talab qiladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning mazmuni bolalarda milliy qadriyatlar vositasida axloqiy sifatlarni shakllantirish, an‘analar, udumlar, milliy qadriyatlarimizni o‘rgatish haqida so‘z boradi.



Kalit soʻzlar: Milliy qadriyatlar, tarbiya, anʼana, madaniyat, hurmat, urf-odatlar, madaniy qadriyatlar.

ФОРМИРОВАНИЕ ЧУВСТВА УВАЖЕНИЯ К КУЛЬТУРНЫМ ЦЕННОСТЯМ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация: В статье рассматривается мысль о том, что построение нового общества в Узбекистане требует, прежде всего, здоровой борьбы с чуждыми идеями, проникающими в наш народ различными путями в нынешнее сложное время, и опоры на наши национальные ценности. Содержание воспитания детей дошкольного возраста на основе национальных ценностей в дошкольных образовательных организациях заключается в формировании у детей нравственных качеств через национальные ценности, обучении их традициям, обычаям, национальным ценностям.

Ключевые слова: Национальные ценности, воспитание, традиции, культура, уважение, обычаи, культурные ценности.

FORMING A SENSE OF RESPECT FOR CULTURAL VALUES IN PRESCHOOL CHILDREN

Annotation: The article discusses the idea that building a new society in Uzbekistan requires, first of all, a healthy fight against foreign ideas that are entering our people in various ways in today's complex times, and relying on our national values. The content of educating preschool children on the basis of national values in preschool educational organizations is to form moral qualities in children through national values, teach traditions, customs, and national values.

Keywords: National values, upbringing, tradition, culture, respect, customs, cultural values.

KIRISH. Oʻzbekistonda yangi jamiyatni barpo etish, avvalo, insonlarning ongini yotgʻoyalardan asrash va milliy qadriyatlarga tayanish bilan chambarchas bogʻliqdir. Bugunki murakkab davrda har bir fuqaro milliy oʻzligini anglab, ajdodlar merosiga hurmat bilan qarashi, sogʻlom dunyoqarash va mustahkam irodaga ega boʻlishi zarur. Ana shundagina jamiyat taraqqiyoti barqaror va maʼnaviy boy boʻladi. Qadriyatlar deganda –inson jamiyat va millat hayotida muhim ahamiyatga ega boʻlgan maʼnaviy, axloqiy, madaniy, tarixiy va ijtimoiy boyliklar tushiniladi. Ular insonlarning hayotga, mehnatga, Vatanga, oilaga, anʼanaga boʻlgan munosabatini belgilaydi. Qadriyatlar millatning oʻziga xosligini saqlaydi, yosh avlodni tarbiyalashda asosiy mezon boʻlib xizmat qiladi: Milliy va madaniy qadriyatlarni hurmat qilish- Bu oʻz xalqing tarixi, tili, dini, urf- odati, anʼanasi va madaniyatiga eʼtibor bilan qarash, ularni asrab-avaylab, kelajak avlodga yetkazish demakdir. Bu hurmat insonda milliy gʻurur va vatan-parvarlik tuygʻusini kuchaytiradi, jamiyatda birlik va totuqlikni mustahkamlaydi. Milliy qadriyatlarga sadoqat-maʼnaviy barkamollikning eng muhim belgilardan biridir.

Madaniy qadriyatlarni hurmat qilish esa xalqning tarixiy merosi, urf odatlari, anʼanalari, sanʼatitili va diniy eʼtiqodlarni qadrlash hamda ularni asrab-avaylash demakdir. Oʻzbek xalqining asriy anʼanalari, jumladan, tarbiya sohasidagi anʼanalari ajdodlarimizning tabarruk dini bilan bogʻliq. Yoshi kattalarga salom berish, ularni hurmat qilish, Yoshi kichiklar va kuchsizlarni avaylash, ilm olish va kasb oʻrganishga undash, halol mehnatga chaqirish qoʻshnilar bilan xushmuomalada boʻlish kabi anʼanalar oʻzbeklar oilalarida, yosh avlodga singdirib kelingan, yaʼni milliy qadriyatlar, urf-odatlar ajdodlarimizdan meros boʻlgan ezgu fazilatlar taʼlim va tarbiya jarayonida yoshlarga oʻrgatilmoqda.

NATIJA VA TAHLIL

Yosh avlod tarbiyasida milliy qadriyatlaridan foydalanishning ahamiyati va oʻrni beqiyos. Milliy qadriyat deganda, muayyan xalqning aksariyat qismi tomonidan eʼzozlanishiga loyiq boʻlgan inshootlar, milliy kiyimlar, uy roʻzgʻor buyumlar, roʻzgʻor tutishlari aytiladi. Masalan, oʻzbeklarning mehnatsevarligi, mehmon-doʻstligi xushxulqligi va muloyimligi, gʻayratli va itoatgoʻyligi, turli toifadagi odamlar bilan oʻzaro inoqlashib ketishligi, kechirimliligi mulohaza va tafakkur bilan ish koʻrishi, tinchliksevarligi oʻzbek milliy qadriyatlari nazarda tutiladi.

Maktabgacha taʼlim yoshidagi bolalarning qiziqish va qobiliyatlarining milliy shakllarini rivojlantirish maktabgacha taʼlim tashkiloti oldiga qoʻyilgan muhim vazifalaridandir. Maktabgacha taʼlim yoshidagi bolalarning qiziqish va qobiliyatlari maʼnaviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlari nazarda tutgan holda, tarbiyachilarning tarbiyalanuvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan oʻzaro amaliy



va nazariy muloqotida namoyon bo’ladi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda uning mohiyatini tushinib yetish kerak. Qadriyatlar o’zining mohiyatiga ko’ra bir necha turga bo’linadi:

Jumladan, inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi: Inson yo’q joyda biror narsaning qadr-qiyamati haqida so’zlashish be’manilikdir. Shuning uchun ham inson qadr-qimmatini e’zozlash, uning turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog’ligini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo’nalishini tashkil etadi. Jamiyatimizda ro’y berayotgan tub o’zgarishlarning islohotlarining barchasi kishilar hayoti to’q, boy, go’zal bo’lishi, inson o’zini chinakam erkin his etishi, o’z mehnati natijasining, o’z taqdirining, o’z mamlakatining egasi bo’lishini ta’minlashga qaratilgan.

Har bir xalq qadrlagan narsa yoki hodisa, birinchi navbatda, uning milliy ma’naviyati bilan bog’liq bo’ladi. Milliy qadriyatlar ham qandaydir o’zgarmas hodisa emas. Milliy ta’lim taraqqiyoti bilan bog’liq bo’lgan ijtimoiy iqtisodiy, ma’naviy hayotning takomillashib borishi, yashash va mehnat qilish sharoitlari o’zgarishi bilan milliy qadriyatlar ham rivojlanib borishiga imkon yaratiladi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, bu yosh avloddan milliy g’oya asosida tarbiyalash, bu yosh avloddan milliy g’oya asosidagi tafakkur, chuqur bilim va ixtisoslikni talab qilmoqda. Uning negizi-milliy qadriyatlarimizdir. “Yangicha yashash”, ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot qurish tuyg’usi esa yosh avlod oldiga kekxa avlodga qaraganda mas’uliyatliroq vazifalarni o’z oldiga qo’ymoqda. Xususan ong va tafakkur hamda ma’naviy qadriyatlardagi o’zgarishlar hayot talabidan orqada qolayotganligi ma’naviy salohiyatdagi qusurlar bilan bog’liqdir. Zamonaviy taraqqiyot bizning yoshlarimiz dunyo qarashiga ham kuchli ta’sir ko’rsatmoqda albatta, ana shunday sharoitda ham biz kattalar yoshlarning barkamol bo’lib shakllanishiga katta e’tibor yaratib ularning milliy qadriyatlarini e’zozlashga o’rgatibbormog’imiz asosiy vazifalarimizdan biridir.

Bugungi kun yoshlari milliyligimizni chuqur anglamog’i lozim. Ana shundagina kelajak avlod o’zbek madaniyatini saqlab qoladigan, vatanni himoya qiladigan insonlar bo’lib yetishadilar.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda milliy qadriyatlar yoshlar tarbiyasida katta ahamiyatga ega, chunki ular yoshlarni o’z vataniga bo’lgan sevgi, hurmat, mehnatsevarlik va vijdonli fuqarolar sifatida tarbiyalashda muhim ro’l o’ynaydi. Milliy qadriyatlar, o’z xalqining tarixiy merosi ma’daniyati va an’alarini aniqlash orqali yoshlarni o’zlikni hurmat qilishga milliy birlik va totuvchilikka intilishlariga undaydi. Shuningdek bu qadriyatlar yoshlarni o’z hayotlarida mas’uliyatlik odatlik va oriyatlik bo’lishiga o’rgatadi bu esa ular uchun mustahkam asos bo’lib kelajakda jamiyatning muvaffaqiyatlik va barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni madaniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash – ularning shaxsiy kamoloti, milliy o’zligining shakllanishi va vatanparvarlik tuyg’ularining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega jarayonidir. Bu davrda bola atrof – muhitni, xulq – atvorlarini, an’alarini va milliy qadriyatlarini o’yin, suhbat ertak hamda san’at vositalari orqali o’zlashtiradi.

Shuning uchun tarbiyachilar va ota-onalar bolalarda madaniy qadriyatlarini hurmat qilish kattalarga hurmat, kichiklarga mehr, tabiatga ehtirom kabi fazilatlarini shakllantirishga alohida e’tibor berishlari zarur. Bunday tarbiya jarayoni orqali bolalar nafaqat milliy, balki umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, ma’naviy yetuk va madaniyatli shaxslar bo’lib voyaga yetadilar.

Ayni paytda madaniyat qadriyatlarini hurmat qilishga yo’naltirilgan tarbiya – maktabgacha ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri bo’lib, u kelajak jamiyatlarining ma’naviy poydevori mustahkamlashga xizmat qiladi:

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Maktabgacha pedagogika Sh.Sodikova Toshkent “2019”
2. Abdurahmonova.X Maktabgacha yoshidagi bolalarda axloqi va madaniy qadriyatlarini shakllantirish yo’llari –Toshkent “2022”.
3. Xo’jayev.A, Qurbonova.D “Maktabgacha yoshdagi ta’lim metodikasi” – T: “Fan va texnologiya” 2021
4. To’xtayeva.N Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlarini singdirish metodikasi –Toshkent , 2020
5. Ilm –ziyo –zakovat “2023”